



Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanish

Rustamjonov Baxtiyorjon Bahromjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar
instituti ipakchilik va tutchilik qishloq xo'jaligi
mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash fakulteti
chorvachilik kafedrası veterinariya meditsinasi

1-bosqich 3-guruh talabasi

+998910711714

baxtiyorjonrustamjonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamlashtirish, axborot texnologiyalarining raqamli iqtisodiyotdagi ahamiyati, raqamli iqtisodiyotning belgilari va qulayliklari, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi kabi masalalar ko'rilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, iqtisodiy yondashuv, traksaktsion sektor.

Abstract: The article discusses issues such as digitalization, the importance of information technologies in the digital economy, the features and conveniences of the digital economy, the formation of the digital economy.

Kalit so'zlar: digital economy, digitalization, information technology, economic approach, traction sector.

Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish



hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi[1,2,3].

«Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi[4].

Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – trakzaksion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi[5].

Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi[6].

Jahondagi globallashuv sharoitida tashqi migratsiya, xalqaro savdo va kapitallar harakati, turizm, xorijiy investitsiyalar, IT rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etadi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Bunga mamlakatimiz tashqi savdo hajmining o'sishini misol qilib keltirish mumkin. “Elektron hukumat”, “Elektron boshqaruv”, “Telekommunikatsiya”, “Internet”, “Veb-sayt” kabi ko'plab iboralar hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylandi. IT kundalik hayotimizning barcha sohasini qamrab olmoqda[7].



Ma'lumki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot qo'shimcha qiymat yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turli xil algoritmlar, jarayonlar va raqamli axborotlar korporativ biznesning strategik rivojlanishida asosiy hal qiluvchi kuchga ega bo'lmoqda. Raqamli nomoliyaviy omillar banklarning raqobatbardoshligini belgilab bermoqda, samaradorligiga ta'sir ko'rsatyapti. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi oxir-oqibat nomoddiy aktivlar, ya'ni fizik jihatdan mavjud bo'lmagan nomonetar aktivlar oshishiga olib kelmoqda. Masalan, 1975 yilda Amerikaning yirik korporatsiyalari nomoddiy aktivlari 17 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilga kelib, bu ko'rsatkich 85 foizdan ortdi. Aniqroq tushuntiradigan bo'lsak, buxgalteriya balansidagi moddiy va nomoddiy aktivlar o'zni almashdi. Raqamli aktivlarni boshqarishning muhim muammolaridan biri — bu ularning huquqiy himoyasidir. Ta'kidlash lozimki, qisqa vaqtlarda va originaldan kamroq xarajat qilib raqamli aktivlar nusxasini yaratish hamda ishga tushirish mumkin. Bu, albatta, raqamli aktivlarning umumiy daromadiga ta'sir qiladi. Raqamli aktivlarni boshqarishda bulutli texnologiyalardan foydalanish asosiy shartlardan bo'lib, texnik, huquqiy va tashkiliy jihatdan axborotlar himoyasi bo'yicha usullarni ishlab chiqish hisoblanadi[8].

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir.

Belgilari: yuqori darajada avtomatlashtirilganlik; elektron hujjat almashinuvi;

buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi; ma'lumotlar elektron bazalari; CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi; korporativ tarmoqlar.

Qulayliklari: To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'l-kira va boshqa resurslar tejraladi).



Tovarlar va xizmatlar haqida ko‘proq va tezroq ma’lumot olinadi.

Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.

Fidbek (iste’molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.

Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli iqtisodiyot butun dunyoni qamrab olishi tufayli, axborotlashtirish va raqamlashtirishga oid har qanday davlat loyihasi kompleks ravishda hamda yagona kodlash tizimi, iqtisodiy va boshqaruvga aloqador axborotni aniqlash asosida o‘rganilishi lozim.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng muhim jihat va bir vaqtning o‘zida eng murakkab bosqich – bu ishbilarmonlik muhitini soddalashtirish hamda odamlar va biznesning davlat bilan muloqotiga sarflanajak xarajatlarni maksimal qisqartirishdir[9]. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi muayyan bazaga ega bo‘lishi kerak, bu quyidagicha bo‘lishi lozim: raqamli infratuzilmani va aloqa standartlarini ishlab chiqish; axborot xavfsizligini ta’minlash; On-Line xizmatlarni kengaytirish; fuqarolar uchun tarmoq ichidagi va On-Line kommunikatsiyalarga bepul kirishni yaratish; raqamli ekotizimlarda axborot oqimlari va bilimlarni boshqarishni takomillashtirish.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va amalga oshirishning muhim jihati, birinchi navbatda, quyidagi muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. Hududlarda investitsion jozibadorligini oshirish va ulardagi innovatsion faoliyatni oshirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasi-dagi hududiy nomutanosiblikni minimallashtirish, mintaqalararo munosabat-larni mustahkamlash hamda inson salohiyatidan oqilona foydalanish lozim,

Bu inqilobiy yondashuv faqatgina buyuk iqtisodiy sakrashlar orqali xalqning turmush darajasini oshirish, aholi farovonligiga birinchi darajali masala sifatida qarash — haqiqiy xalqparvar yetakchiga xosdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alekseev I.V. Informatsionnoe obespechenie sistema upravleniya franchayzingovymi predpriyatiyami / I.V. Alekseev, Ye.V. Ribokene // Ekonomicheskie i gumanitarnye nauki. – 2015. –
2. №1 (276). – S. 105–110.
3. Brayan A. Vtoraya ekonomika [Elektronnyy resurs]. – Rejim dostupa:
4. Usmonov, M.T. & Shokirov., Sh.H, (2022). Teylor formulasini matematik masalalarni yechishdagi ahamiyati. "«Science and Education» Scientific Journal" Scientific Journal, Tom-3, 19-23.
5. Usmonov, M.T. & Shokirov., Sh.H, (2022). Darajali qatorlarning taqribiy hisoblashlarga tatbiqi. «Science and Education» Scientific Journal, Tom-3, 29-32.